ILG‘OR IQTISODIYOT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
ILMIY ELEKTRON JURNAL

UO‘K: 336.71:339.7:351.86(575.1)

XALQARO MOLIYAVIY QARAMLIKNING SIYOSIY OQIBATLARINI CHEKLASHDA O‘ZBEKISTON BANK TIZIMINING MILLIY XAVFSIZLIK FUNKSIYALARI

Isroilov Madaminjon
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
ORCID: 0009-0004-0548-9498
isroilov_8181@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston bank tizimining xalqaro moliyaviy qaramlikning siyosiy oqibatlarini cheklashdagi milliy xavfsizlik funksiyalari tahlil qilingan. Pul o‘tkazmalari, tashqi qarz, zaxira aktivlari hamda valyuta va to‘lov kanallari bo‘yicha qaramlik darajasi sezuvchanlik va zaiflik mezonlari asosida baholangan, bank tizimining shokni yutish, kanallarni diversifikatsiya qilish, qarz va valyuta xavfini boshqarish hamda infratuzilma xavfsizligi funksiyalari asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *moliyaviy qaramlik, milliy xavfsizlik, bank tizimi, pul o‘tkazmalari, tashqi qarz, xalqaro zaxiralar, sezuvchanlik va zaiflik, O‘zbekiston.*

ФУНКЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА В ОГРАНИЧЕНИИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПОСЛЕДСТВИЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ ЗАВИСИМОСТИ

Исроилов Мадаминжон
Центральный банк Республики Узбекистан

Аннотация. *В данной статье проанализированы функции банковской системы Узбекистана в области национальной безопасности при ограничении политических последствий международной финансовой зависимости. Уровень зависимости по денежным переводам, внешнему долгу, резервным активам и валютно-платёжным каналам оценен по критериям чувствительности и уязвимости, обоснованы функции банковской системы по поглощению шоков, диверсификации каналов, управлению долговым и валютным риском и безопасности инфраструктуры.*

Ключевые слова: *финансовая зависимость, национальная безопасность, банковская система, денежные переводы, внешний долг, международные резервы, чувствительность и уязвимость, Узбекистан.*

NATIONAL SECURITY FUNCTIONS OF UZBEKISTAN'S BANKING SYSTEM IN LIMITING THE POLITICAL CONSEQUENCES OF INTERNATIONAL FINANCIAL DEPENDENCE

Isroilov Madaminjon
Central Bank of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article analyzes the national security functions of Uzbekistan’s banking system in limiting the political consequences of international financial dependence. The level of dependence in remittances, external debt, reserve assets, and currency and payment channels is assessed using sensitivity and vulnerability criteria, and the banking system’s functions of shock absorption, channel diversification, debt and currency risk management, and infrastructure security are substantiated.*

Keywords: *financial dependence, national security, banking system, remittances, external debt, international reserves, sensitivity and vulnerability, Uzbekistan.*

Kirish.

Xalqaro moliyaviy qaramlik – davlatning pul oqimlari, qarz majburiyatlari, zaxira aktivlari va to‘lov kanallari tashqi omillarga bog‘liqlik darajasi. Bunday bog‘liqlik o‘z-o‘zidan xavf emas: u siyosiy oqibat keltirishi uchun asimmetrik bo‘lishi va muqobil kanallar cheklangan bo‘lishi kerak (Hirschman, 1945; Keohane, 1977). Shu bois moliyaviy xavfsizlik qaramlikni butunlay bartaraf etishni emas, balki uning siyosiy narxini cheklashni nazarda tutadi. Geosiyosiy raqobat kuchayib, moliyaviy kanallar bosim vositasiga aylanayotgan bir paytda bu masala milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston misolida muammoning dolzarbligi raqamlarda ko‘rinadi: 2025-yilda mamlakatga 18,9 mlrd dollar pul o‘tkazmalari kelgan (Kun.uz, 2026), yalpi tashqi qarz 2026-yil 1-yanvarda 82,2 mlrd dollarga yetgan (Kun.uz, 2026a), xalqaro zaxiralarning 90 foizdan ortig‘i oltindan iborat (Daryo, 2026). Bunday sharoitda bank tizimi qaramlikning siyosiy oqibatlarini yumshatuvchi yoki, aksincha, kuchaytiruvchi institut sifatida alohida tadqiqotni talab qiladi. Maqolaning maqsadi – moliyaviy qaramlikning asosiy kanallarini aniqlash va ularning siyosiy oqibatlarini cheklashda bank tizimining milliy xavfsizlik funksiyalarini asoslashdan iborat. Tadqiqot gipotezasiga ko‘ra, qaramlik kontsentratsiyasi yuqori kanallarda (pul o‘tkazmalari, zaxira tarkibi) bank tizimining diversifikatsiya va shokni yutish funksiyalari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili.

Qaramlikning siyosiy mohiyati xalqaro siyosiy iqtisodda uzoq vaqtdan beri o‘rganiladi. Xirshman (1945) tashqi aloqalarning asimmetriyasi siyosiy ta’sir manbaiga aylanishini ko‘rsatgan, biroq uning tahlili asosan tovar savdosiga qaratilgan.

Keohane va Nay (1977) o‘zaro bog‘liqlikni ikki o‘lchovda baholashni taklif etgan: sezuvchanlik tashqi o‘zgarish ichki ko‘rsatkichlarga qanchalik tez ta’sir qilishini, zaiflik esa bu ta’sirni muqobil vositalar bilan yumshatish qanchalik qiyinligini bildiradi; ammo bu model bank tizimini alohida institut sifatida ko‘rmaydi. Farrell va Nyuman (2019) global moliya tarmoqlarining markaziy tugunlarini nazorat qiluvchi davlatlar kuzatuv va chetlatish imkoniyatiga ega bo‘lishini asoslagan, lekin tahlil kuchli davlatlar nuqtai nazaridan qurilgan. Buzan (1998) va hamkorlari xavfsizlikni muayyan masalaning “xavfsizlik muammosi” deb belgilanishi (sekyuritizatsiya) orqali tushuntiradi; bu yondashuv ortiqcha sekyuritizatsiya xavfini ko‘rsatadi, biroq iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lanmagan. Rey (2013) global moliyaviy sikl rivojlanayotgan mamlakatlar pul-kredit siyosatining mustaqilligini cheklashini isbotlagan, Eyxengrin va Xausman (2005) esa qarz valyuta tarkibining moliyaviy barqarorlikdagi rolini tahlil qilgan. Mavjud ishlar qaramlikning siyosiy va makroiqtisodiy jihatlarini alohida yoritadi, ammo ularni pul o‘tkazmalari, oltinga asoslangan zaxiralar va korporativ tashqi qarz birga ta’sir qiladigan mamlakatda bank tizimining xavfsizlik funksiyalari nuqtai nazaridan tizimlashtirmaydi. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot xalqaro siyosiy iqtisod paradigmasiga tayanib, tavsifiy-tushuntiruvchi yakka keys (O‘zbekiston, 2024–2026-yillar) shaklida tuzilgan. Nazariy asos sifatida Keohane va Nye (1977) konsepsiyasi tanlandi, chunki u qaramlikni yo‘nalish bo‘yicha emas, ta’sir tezligi va muqobillik bo‘yicha o‘lchash imkonini beradi. Qaramlik to‘rt kanalga ajratildi: pul o‘tkazmalari (hajm, bitta mamlakat ulushi, uy xo‘jaliklari daromadidagi ulushi), tashqi qarz (davlat va korporativ qarz, YaIMga nisbati, kreditorlar va muddat), zaxira aktivlari (hajm, oltin ulushi, narx tebranishi) hamda valyuta va to‘lov kanali (valyutadagi kredit va depozit ulushi). Qo‘llanilgan usullar: normativ-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili, qiyosiy-dinamik tahlil, sezuvchanlik va zaiflikning uch darajali (past, o‘rta, yuqori) sifat baholanishi hamda triangulyatsiya. Baholar muallifning ekspert fikriga asoslangan; ma’lumotlar Markaziy bank va vazirliklar hisobotlarini yoritgan ochiq nashrlardan olingani sababli ular qayta ko‘rib chiqilishi mumkin, yakka keys

natijalarini umumlashtirish esa ehtiyotkorlik talab qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Pul o‘tkazmalari. 2025-yilda pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd dollarga yetib, bir yilda 27,2 foizga oshgan; uy xo‘jaliklari daromadida xorijiy o‘tkazmalar ulushi 16,5 foizdan 21 foizga ko‘tarilgan (Centralasianlight, 2025). 2025-yil yanvar–oktabrda 15,8 mlrd dollarning taxminan 78 foizi (12,3 mlrd dollar) Rossiyadan kelgan (Kun.uz, 2026). Jahon bankining 2024-yilgi tadqiqotiga ko‘ra, o‘tkazmalar YaIMning 14 foizini tashkil etgan va qashshoqlik darajasining 9,6 foizdan 16,8 foizgacha oshishini oldini olgan. 2025-yil birinchi yarmida o‘tkazmalarning 53 foizi (4,3 mlrd dollar) xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari, atigi 3 foizi SWIFT orqali o‘tgan (Kun.uz, 2025). Keohane va Nye mezonlari bo‘yicha bu kanal eng xavfli: sezuvchanlik yuqori (yillik o‘sish 27,2 foiz va daromaddagi ulush 21 foiz), zaiflik ham yuqori, chunki bitta manba ulushi uchdan to‘rt qismidan oshadi va qisqa muddatda teng muqobil yo‘q. Xirshman mantig‘iga ko‘ra (Hirxchman, 1945) aynan shunday asimmetriya siyosiy ta’sirga aylanishi mumkin; oqibat ijtimoiy barqarorlikka (qashshoqlik xavfi) va tashqi siyosiy erkinlikka bosim bo‘lishi mumkin.

Yalpi tashqi qarz 2026-yil 1-yanvarda 82,2 mlrd dollar bo‘lib, bir yilda 18,1 mlrd dollarga (28 foizga) oshgan; shundan davlat qarzi 40,5 mlrd dollar (YaIMning 27,5 foizi), korporativ qarz 41,7 mlrd dollar (28,4 foizi); yalpi qarzning YaIMga nisbati 55,8 foiz Kun.uz (2026a). Korporativ qarz yalpi qarzning taxminan 51 foizini va yillik o‘sishning taxminan 64 foizini tashkil etadi (muallif hisob-kitobi); uning 90 foizdan ortig‘i uzoq muddatli Kun.uz (2026a). Davlat tashqi qarzida xalqaro moliya institutlari ulushi 55–56 foiz; yirik kreditorlar – Jahon banki (8,9 mlrd), Osiyo taraqqiyot banki (8,3 mlrd), yevroobligatsiyalar (5,8 mlrd) va Xitoy moliya institutlari (3,9 mlrd dollar). 2026-yil 1-iyulga yalpi tashqi qarz 84,1 mlrd dollarga yetgan; davlat qarzida so‘mdagi ulush 2020-yildagi 5,9 foizdan 2025-yil oxirida 12,2 foizga oshgan.

Demak, davlat qarzi bo‘yicha vaziyat nisbatan yumshoq, biroq korporativ qarzning tez o‘sishi banklar va kompaniyalar uchun refinanslash xavfini oshiradi, so‘mdagi qarzning 12,2 foizligi esa Eyxengrin va Xausman (2005) tahlil qilgan valyuta mos kelmasligi muammosining hali to‘liq yengilmaganini bildiradi.

Zaxiralar bo‘yicha 2026-yil 1-yanvarda xalqaro zaxiralar 66,31 mlrd dollar bo‘lib, shundan oltin 55,09 mlrd dollar, xorijiy qimmatli qog‘ozlar 1,53 mlrd dollar (2,31 foiz); 2026-yil 1-oktabrda zaxiralar 66,59 mlrd dollar, oltin ulushi 90,2 foiz Daryo (2026). 2026-yil martida oltin narxi pasayishi tufayli zaxiralar bir oyda 8,09 mlrd dollarga kamaygan Kun.uz (2026d). Oltinning yuqori ulushi tashqi muzlatish xavfini pasaytirishi mumkin, lekin narx shoklariga sezuvchanlikni oshiradi; Rey (2013) ko‘rsatganidek, bunday sharoitda tashqi sikl pul-kredit siyosatining mustaqilligini cheklaydi. Bank tizimi balansida davlat banklarining ulushi aktivlarda 62,7 foiz, kredit portfelida 66,1 foiz; valyutadagi kreditlar ulushi 39 foiz, depozitlar ulushi 19 foiz Kun.uz (2026b). Natijalar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Qaramlik kanallarining baholanishi (muallif bahosi)

Kanal	Asosiy dalil	Sezuvchanlik	Zaiflik
Pul o‘tkazmalari	18,9 mlrd dollar; 78 foiz bitta manbadan	Yuqori	Yuqori
Tashqi qarz	82,2 mlrd dollar; korporativ ulush ~51 foiz	O‘rta	O‘rta
Zaxiralar	Oltin ulushi 90,2 foiz; bir oyda −8,09 mlrd dollar	Yuqori	O‘rta
Valyuta va to‘lov	Valyutadagi kreditlar 39 foiz	O‘rta	O‘rta

Olingan natijalar bank tizimining to‘rt milliy xavfsizlik funksiyasini ajratish imkonini beradi. Birinchisi – shokni yutish: bank tizimi o‘tkazmalar kamayishi yoki zaxira qiymati tushishining iste’mol va kreditlashga o‘tishini yumshatadi, davlat banklarining yuqori ulushi esa

inqiroz davrida kreditlashni ushlab turishga imkon beradi. Ikkinchisi – kanallarni diversifikatsiya qilish: banklar boshqa mamlakatlar bilan korrespondent aloqalarni kengaytirib, o‘tkazmalarni rasmiy kanallarga va so‘mdagi jamg‘arma hamda kredit mahsulotlariga yo‘naltirishi mumkin. Uchinchisi – qarz va valyuta xavfini makroprudensial boshqarish: korporativ qarzning yarmi banklar va ular bilan bog‘liq kompaniyalar orqali shakllangani uchun valyuta mos kelmasligi va refinanslash xavfi nazoratga muhtoj.

To‘rtinchisi – infratuzilma xavfsizligi: to‘lov tizimlari va kritik axborot infratuzilmasining barqarorligi kiberxavfsizlik va bank qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Buzan (1998) va hamkorlarining konsepsiyasi ortiqcha sekyuritizatsiya moliyaviy ochiqlikni cheklab, kapital qiymatini oshirishi mumkinligini eslatadi, shu bois siyosat “ochiqlikni saqlagan holda diversifikatsiya” tamoyiliga asoslanishi lozim. Amaliy yo‘nalishlar: o‘tkazmalarning manba va kanallar bo‘yicha diversifikatsiyasini monitoring qilish; korporativ tashqi qarz bo‘yicha valyuta mos kelmasligi me’yorlarini kuchaytirish; so‘mdagi uzoq muddatli resurslar bozorini rivojlantirish; zaxiralar tarkibini diversifikatsiya qilishni davom ettirish. 1-jadvaldagi baholar sifat xarakterida bo‘lgani sababli kelgusida miqdoriy indeks va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish zarur.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot O‘zbekistonda moliyaviy qaramlikning eng xavfli kanali pul o‘tkazmalari ekanini (78 foiz bitta manbadan), zaxiralarda oltinning 90 foizdan ortiq ulushi narx sezuvchanligini oshirishini ko‘rsatdi; tashqi qarz tuzilmasi nisbatan barqaror, lekin korporativ qarz o‘sishi nazoratni talab qiladi. Bank tizimi shokni yutish, kanallarni diversifikatsiya qilish, qarz va valyuta xavfini boshqarish hamda infratuzilma xavfsizligi funksiyalari orqali qaramlikning siyosiy oqibatlarini cheklaydi. Takliflar: o‘tkazmalar kanallarini diversifikatsiya qilish; korporativ qarz bo‘yicha valyuta xavfi me’yorlarini kuchaytirish; so‘mdagi uzoq muddatli moliyalashtirishni rivojlantirish; ko‘rsatkichlarni yillik monitoringga kiritish.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Qonun (2019). O‘zbekiston Respublikasining 5-noyabrdagi O‘RQ-580-sonli “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”

Qonun (2019a). O‘zbekiston Respublikasining 11-noyabrdagi O‘RQ-582-sonli “Markaziy bank to‘g‘risida”

Qonun (2022). O‘zbekiston Respublikasining 15-apreldagi O‘RQ-764-sonli “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”

Buzan B., WÉver O., de Wilde J. (1998). Security: A New Framework for Analysis. – Boulder: Lynne Rienner. – 239 p.

Eichengreen B., Hausmann R. (eds.) (2005). Other People’s Money: Debt Denomination and Financial Instability in Emerging Market Economies. – Chicago: University of Chicago Press.

Farrell H., Newman A.L. (2019). Weaponized Interdependence: How Global Economic Networks Shape State Coercion // International Security. – Vol. 44. – No. 1. – P. 42–79.

Hirschman A.O. (1945). National Power and the Structure of Foreign Trade. – Berkeley: University of California Press. – 173 p.

Keohane R.O., Nye J.S. (1977). Power and Interdependence: World Politics in Transition. – Boston: Little, Brown. – 273 p.

Rey H. (2013). Dilemma not Trilemma: The Global Financial Cycle and Monetary Policy Independence // Global Dimensions of Unconventional Monetary Policy. – Kansas City: Federal Reserve Bank of Kansas City. – P. 285–333.

Kun.uz (2026). Remittances to Uzbekistan exceed $18.9 billion, tripling in five years // Kun.uz, 17 March. – https://kun.uz/en/news/2026/03/17/remittances-to-uzbekistan-exceed-189-billion-tripling-in-five-years

(Kun.uz, 2025). Remittances to Uzbekistan grow 27% amid strong labor demand abroad //

Kun.uz, 18 July. – https://kun.uz/en/news/2025/07/18/remittances-to-uzbekistan-grow-27-amid-strong-labor-demand-abroad

Centralasianlight, (2025) Remittances to Uzbekistan increased to $18.9 billion in 2025 // Central Asian Light. – https://centralasianlight.org/news/remittances-to-uzbekistan-increased-to-18.9-billion-in-2025

Kun.uz (2026a). Uzbekistan's external debt surges by record $18.1 billion in a single year, reaching $82.2 billion // 4 May. – https://kun.uz/en/news/2026/05/04/uzbekistans-external-debt-surges-by-record-181-billion-in-a-single-year-reaching-822-billion

Daryo (2026). Uzbekistan's international reserves decline by $5.5bn to $66.59bn in September 2026 // 9 October. – https://daryo.uz/en/2026/10/09/uzbekistans-international-reserves-decline-by-5-5bn-to-66-59bn-in-september-2026/

Kun.uz (2026d). Gold price dip leads to $8.1 billion drop in Uzbekistan's international reserves // Kun.uz. – 2026, 9 April. – https://kun.uz/en/news/2026/04/09/gold-price-dip-leads-to-81-billion-drop-in-uzbekistans-international-reserves

Kun.uz (2026b). Uzbekistan's banking sector posts two-thirds increase in net profit // Kun.uz. – 2026, 27 July. – https://kun.uz/en/news/2026/07/27/uzbekistans-banking-sector-poss-two-thirds-increase-in-net-profit